O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO
TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: TIL, TA’LIM, NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI



2025-YIL, 15-17-MAY

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: TIL, TA’LIM, NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2025-yil 15 – 17-may

QARSHI – 2025

UO'K 811.512.1
BBK -81.2.2 G-55
"**Globallashuv davrida turkiy tillar taraqqiyoti: til, ta'lim, nazariya va amaliyot muammolari**" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2025. – 926 bet.

Mazkur to'plamda globallashuv jarayonlari sharoitida turkiy tillarning bugungi holati, ularning taraqqiyot yo'llaridagi muammo va yechimlar xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, turkiy tillarning zamonaviy kommunikatsion muhitdagi o'rni, ularni saqlash va asrab-avaylash, rivojlantirish, xususan, til siyosati, tilning ta'lim tizimidagi o'rni, o'quv dasturlari va zamonaviy metodikalarning ahamiyati ko'rsatilgan. Nazariy jihatdan tilshunoslik konsepsiyalari asosida turkiy tillarning integratsiyasi, ularning lingvistik va sotsiomadaniy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Amaliy jihatdan esa til o'rganish, o'qitish va standartlashtirishda uchraydigan dolzarb masalalar, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida tilni rivojlantirish imkoniyatlari muhokama etilgan. To'plam keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

MAS'UL MUHARRIR
Xo'jamurod Jabborov – filologiya fanlari doktori professori

Raxmonov L.T.	– Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Ibragimov E.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori
Axunjonov U.M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori
Abdullayev O'.Sh.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i
Pardayev A.B.	– Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Hamidov X.X.	– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Kuljanova B.R.	– Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi (Qozog'iston)
Aynur O'z O'zgan	– Anqara universiteti professori, filologiya fanlari doktori (Turkiya)
Turdibekov M.	– Renessans ta'lim universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Islomov I.X.	– Renessans ta'lim universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Erjigitova Sh.J.	– Batken davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Qirg'iziston)
Fayzulloyev B.B.	– Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Tojikiston)
Xo'jamurodova O.X.	–Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi mudiri
Normamatov X. M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
Jo'rayeva M.Y.	– Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 28-aprel, 10-son bayonnoma)

To'plamga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas'uldir.
© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2025.

GNOSEOLOGIK BILIMLARNI O'QITIShNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Ibragimov E.X. – Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri yosh avlodga nafaqat ma'lum hajmdagi bilimlarni berish, balki ularda mustaqil bilish qobiliyatini, ilmiy dunyoqarashni va tanqidiy tafakkurni shakllantirishdir. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda gnoseologik bilimlarni o'qitish masalasi alohida ahamiyatga ega. Gnoseologiya (yun. γνῶσις — bilim, λόγος — ta'limot) — falsafaning bilish haqidagi bo'limi bo'lib, u bilimning tabiati, manbalari, chegaralari, haqiqatning mezonlari hamda bilish jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi.

V.A. Lektorskiyning ta'kidlashicha, zamonaviy epistemologiya va gnoseologiya falsafaning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u nafaqat bilim tabiatini, balki bilish sub'ekti va ob'ekti o'rtasidagi munosabatlarni, bilimning asoslanish mezonlarini ham tadqiq etadi[1]. Shu bois gnoseologik bilimlarni o'qitish o'ziga xos didaktik yondashuv va tamoyillarga asoslanishi kerak. Chunki bu sohada o'qituvchi faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quvchining mustaqil bilish faoliyatini tashkil etuvchi rahbardir.

Didaktika — ta'lim nazariyasining asosi bo'lib, uning asoschisi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592–1670) hisoblanadi. Uning "Buyuk didaktika" (Didactica Magna) asarida birinchi marta o'qitishning tizimli nazariyasi bayon etildi va uning asosiy tamoyillari ko'rsatildi[2]. Ya.A. Komenskiy o'z didaktik tizimini inson bilish jarayonining tabiiy qonunlariga asosladi, shu sababli didaktika va gnoseologiya o'rtasidagi bog'liqlik uning ishlarida aniq ko'rinib turardi.

I.P. Podlasыy ta'kidlaydiki, gnoseologiya va didaktika bir-biriga chambarchas bog'liqdir: gnoseologiya bilish jarayonining umumiy qonunlarini ochib bersa, didaktika bu qonunlarni o'quvchilarga bilim yetkazish jarayoniga tatbiq etadi. Shuning uchun har qanday didaktik tamoyil o'z asosida u yoki bu gnoseologik g'oyaga tayanadi. Masalan, ko'rgazmalilik tamoyili — sensualizm gnoseologiyasiga, ilmiylik tamoyili — ratsionalistik gnoseologik

[1]Лекторский В.А. Эпистемология классическая и неклассическая. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — С. 24–37.

[2]Коменский Я.А. Великая дидактика // Избранные педагогические сочинения: В 2 т. Т. 1. — М.: Педагогика, 1982. — С. 242–476.

an'anaga, amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili — dialektik-materialistik gnoseologiyaga asoslanadi.

K.D. Ushinskiyning "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli fundamental asarida birinchilardan bo'lib ta'lim jarayonining psixologik-gnoseologik asoslarini ochib berdi va o'qitishni inson bilish faoliyatining qonunlariga mos tashkil etish zarurligini asosladi[3]. Uning ta'limoti keyingi barcha didaktik tadqiqotlarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Ilmiylik tamoyili — o'qitishning eng asosiy tamoyillaridan biridir. U ta'lim mazmunini zamonaviy ilm-fan yutuqlariga moslashtirishni talab etadi. Gnoseologik bilimlarni o'qitishda bu tamoyil alohida ahamiyatga ega, chunki gnoseologiya — falsafaning o'zi ilmiy bilimlarning tabiatini o'rganuvchi qismidir. Yu.K. Babanskiyning ta'kidlashicha, ilmiylik tamoyili ob'ektiv ilmiy haqiqatni o'quvchilarga yetkazishni, fan tilini va tushunchalarini to'g'ri qo'llashni, shuningdek, ilmiy tadqiqot metodlarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi[4].

Bu tamoyilni amalga oshirishda o'qituvchi: gnoseologik tushunchalarni (bilish, haqiqat, bilim, fikr, ishonch, dalil) ilmiy tarzda ta'riflashi; gnoseologiyaning asosiy yo'nalishlarini (empirizm, ratsionalizm, skeptitsizm, agnostitsizm) ob'ektiv bayon etishi; turli maktablar va faylasuflarning qarashlarini xolisona taqdim etishi lozim. Gnoseologik bilimlar tabiatan munozarali bo'lganligi uchun, o'qitishda har bir muammo bo'yicha turli qarashlar berilishi, o'quvchilarga mustaqil xulosa chiqarish imkoniyati yaratilishi kerak.

Ya.A. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida birinchi bo'lib tizimlilik tamoyilini asoslab berdi. Unga ko'ra, bilimlar birin-ketin, izchil tarzda, oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, konkretdan abstraktga yo'nalishda berilishi kerak. M.N. Skatkin ta'kidlaydiki, tizimlilik tamoyili nafaqat materialning ketma-ketligini, balki ichki mantiqiy bog'liqligini, tushunchalarning bir-biri bilan aloqasini ta'minlashni talab etadi[5].

Gnoseologik bilimlarni o'qitishda tizimlilik quyidagicha namoyon bo'ladi: avval bilishning umumiy tushunchasi, keyin uning darajalari (hissiy, ratsional) va shakllari (sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, xulosa) o'rganiladi; keyin bilish metodlari (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, abstraksiya, umumlashtirish) tushuntiriladi; nihoyat, haqiqat masalasi va uning mezonlari yoritiladi. Bunday izchil yondashuv o'quvchilarda yaxlit gnoseologik dunyoqarashni shakllantiradi. A.V. Xutorskoy o'z ishlarida tizimlilik tamoyilining zamonaviy sharhini berib, uni nafaqat material joylashtirish tartibi, balki ta'lim jarayonining yaxlit tuzilmasini ta'minlash sifatida talqin etadi.

[3]Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии // Собрание сочинений: В 11 т. Т. 8. — М.-Л.: Изд-во АПН РСФСР, 1950. — С. 23–35.

[4]Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения: Общедидактический аспект. — М.: Педагогика, 1977. — С. 56–72.

[5]Скаткин М.Н. Совершенствование процесса обучения. — М.: Педагогика, 1971. — С. 89–104.

Onglilik va faollik tamoyili zamonaviy didaktikaning markaziy tamoyillaridan biridir. Bu tamoyilga ko‘ra, o‘qitish samarador bo‘lishi uchun o‘quvchilar bilish faoliyatida faol qatnashishi, o‘qish maqsadlarini anglab, materialni ongli ravishda o‘zlashtirishi lozim. I.P. Podlasiyning ta’kidlashicha, onglilik — o‘rganilayotgan masalaning mohiyatiga kirish, olingan bilimlarni amalda ongli qo‘llash qobiliyatini bildiradi[6].

Gnoseologik bilimlarni o‘qitishda bu tamoyil yanada muhimroqdir. Chunki gnoseologiya — sof yodlash yoki mexanik takrorlash mumkin bo‘lmagan sohadir. Bu yerda o‘quvchi mustaqil tafakkur yuritishi, muammo qo‘yishi, dalillarni tahlil qilishi, xulosa chiqarishi kerak. L.S. Vыgotskiyning psixologik-pedagogik tadqiqotlariga ko‘ra, insonda oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi aynan faol bilish faoliyati orqali amalga oshadi[7]. Shuning uchun gnoseologik bilimlarni o‘qitishda munozara, muammoli vaziyatlar, keys-stadi, Sokrat suhbati kabi interaktiv usullar alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili — Ya.A. Komenskiy tomonidan “didaktikaning oltin qoidasi” deb atalgan. U yozadi: “Bilish hamma vaqt sezgilardan boshlanishi kerak”. Bu tamoyilning asosida sensualistik gnoseologiya yotadi, unga ko‘ra inson bilishining birlamchi manbai — hissiy idrokdir. T.A. Ilinaning ta’kidlashicha, ko‘rgazmalilik nafaqat rasm, diagramma va jadvallardan foydalanishni, balki o‘rganilayotgan tushunchalarni konkret hayotiy misollar orqali tushuntirishni ham o‘z ichiga oladi[8].

Gnoseologik bilimlarni o‘qitishda ko‘rgazmalilik o‘ziga xos murakkablikka ega, chunki gnoseologik tushunchalar — mavhum tushunchalardir. Biroq ularni tushuntirishda turli vositalardan foydalanish mumkin: bilish jarayoni darajalarining sxematik tasviri; ilmiy kashfiyotlar tarixidan misollar; turli filosof va faylasuflar qarashlarining qiyosiy jadvali; video-ma’ruzalar, multimedia prezentatsiyalar; kundalik hayotdan olingan misollar orqali mavhum tushunchalarni sharhlash. Zamonaviy axborot texnologiyalari bu borada katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Tushunarlilik tamoyili — ta’lim mazmuni va usullarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va psixologik imkoniyatlariga moslashtirishni talab etadi. Ya.A. Komenskiy “oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa” tamoyilini ilgari surgan. H. Shermuhamedov va A. Ochildiev ta’kidlaydilarki, falsafiy-gnoseologik

[6]Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов — 100 ответов: учеб. пособие для вузов. — М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. — С. 145–158.
[7]Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: В 6 т. Т. 2. — М.: Педагогика, 1982. — С. 5–361.
[8]Ильина Т.А. Педагогика: Курс лекций. Учебное пособие для студентов педагогических институтов. — М.: Просвещение, 1984. — С. 218–235.

tushunchalarni o‘qitishda ularni talabalar uchun tushunarli qilib berish — o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir[9].

Gnoseologik bilimlar tabiatan mavhum va murakkab bo‘lganligi sababli, ularni o‘rganishda quyidagi qoidalarga rioya qilish muhim: murakkab tushunchalarni oddiy misollar va o‘xshatishlar orqali yoritish; maxsus terminlarni har tomonlama izohlash va ularning etimologiyasini ko‘rsatish; nazariy materialga amaliy misollarni bog‘lash. Biroq tushunarlilik soddalashtirish yoki ilmiy mazmunni susaytirish bilan adashtirilmasligi kerak. J. Hasanboev va boshqa o‘zbek pedagoglarining ta’kidlashlaricha, tushunarlilik — o‘quvchining o‘z kuchi bilan, ma’lum qiyinchilikni yengib o‘zlashtira oladigan darajada bilim berish demakdir[10].

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili — dialektik-materialistik gnoseologiyaning muhim tamoyilidir. Bu qarashga ko‘ra, amaliyot — haqiqatning asosiy mezonidir. Yu.K. Babanskiyning ta’kidlashicha, bu tamoyil o‘quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Gnoseologik bilimlarni o‘qitishda bu tamoyil quyidagicha namoyon bo‘ladi: fan tarixidagi konkret ilmiy kashfiyotlar orqali bilish jarayonining qonunlarini ko‘rsatish; o‘rganilayotgan gnoseologik kategoriyalarni (haqiqat, ishonch, dalil) kundalik hayotdagi munosabatlarga tatbiq etish; o‘quvchilarga mustaqil tadqiqot ishlari topshiriqlari berish; muammoli o‘rganish orqali bilish faoliyatini modellashtirish. Shu nuqtai nazardan, gnoseologik bilimlar nafaqat nazariy, balki o‘quvchining tanqidiy tafakkurini shakllantiruvchi amaliy ahamiyatga ega sohadir.

Bilimlarning mustahkamligi tamoyili — olingan bilimlarning xotirada uzoq muddat saqlanishi va zarur paytda amaliy faoliyatda qo‘llanilishini talab etadi. Bu tamoyil psixologik-pedagogik jihatdan juda muhimdir, chunki tez unutiluvchi bilimlar hech qanday amaliy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. I.P. Podlasiyning ta’kidlashicha, mustahkamlik tamoyili ongli o‘zlashtirish, materialni takrorlash, tizimlashtirish va amalda qo‘llash bilan ta’minlanadi.

Gnoseologik bilimlarni o‘rganishda mustahkamlikka erishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi: o‘rganilgan tushunchalarni turli vaziyatlarda qayta-qayta tadbiq etish; asosiy kategoriyalarni kengaytirilgan tarzda muhokama qilish; takrorlash va umumlashtiruvchi seminarlar o‘tkazish; yozma ishlar, referatlar, maqolalar yozish orqali materialni mustaqil qayta ishlash; testlar va o‘zini o‘zi nazorat qilish topshiriqlari. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboevaning ta’kidlashlaricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar,

[9]Шермуҳамедов С., Очилдиев А. Фалсафа: Олий ўқув юртлари учун дарслик. — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010. — Б. 145–156.

[10]Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М. Педагогика. — Тошкент: Ўқитувчи, 2006. — Б. 87–102.

xususan "ong xaritalari" (mind maps), klaster usullari mustahkamlikni ta'minlashda samarali vositalardir[11].

Gnoseologik bilimlarni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, gnoseologiya — refleksiv fan bo'lib, u inson bilimining o'zini o'rganadi. Shuning uchun uni o'rganishda "bilim haqidagi bilim" paydo bo'ladi, bu esa metakognitiv qobiliyatlarni talab etadi.

Ikkinchidan, gnoseologik bilimlar tabiatan munozarali bo'lib, u yerda yakuniy javoblar kamdan-kam uchraydi. Shuning uchun uni o'qitishda muammoli yondashuv, plyuralizm va tanqidiy munozara muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, gnoseologik bilimlar boshqa fanlar bilan keng aloqaga ega — u mantiq, psixologiya, tilshunoslik, tabiiy fanlar bilan bog'liq. Bu esa fanlararo yondashuv zaruratini tug'diradi.

To'rtinchidan, gnoseologik bilimlar inson dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli uni o'qitishda tarbiyaviy jihatlar alohida ahamiyatga ega. A.V. Xutorskiyning "Zamonaviy didaktika" asarida qayd etilishicha, gnoseologik bilimlarni o'rganish o'quvchida ilmiy shubha qilish, dalil bilan fikr aytish, o'z qarashlarini himoya qila olish kabi intellektual fazilatlarni shakllantiradi[12].

Zamonaviy sharoitda gnoseologik bilimlarni o'qitish yangicha yondashuvlar va innovatsion usullarni talab etadi. An'anaviy ma'ruza-seminar tizimi bilan birga, interaktiv usullar, loyiha-tadqiqot metodlari, raqamli ta'lim vositalari keng qo'llanilmoqda. Bu jarayonda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Birinchisi — konstruktivistik yondashuv. Unga ko'ra, bilim o'quvchiga "uzatilmaydi", balki uni o'quvchining o'zi faol quradigan jarayondir. Bu yondashuvda o'qituvchi — rahnamo, maslahatchi rolini bajaradi. Ikkinchisi — Sokrat metodi va uning zamonaviy shakllari. Bu metod savollar orqali o'quvchini mustaqil tafakkurga yetaklaydi va hozirda jahon universitetlarida "Sokrat seminari" nomi bilan qo'llaniladi.

Uchinchisi — muammoli o'rganish. Unda o'quvchi oldiga gnoseologik muammo qo'yiladi (masalan: "Biz nimani haqiqatan bilishimiz mumkin?") va u o'z yechimini mustaqil izlaydi. To'rtinchisi — raqamli ta'lim vositalari: interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn munozara platformalari. O'.Q. Tolipov va M. Usmonboevaning tadqiqotlarida qayd etilishicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchining bilish faoliyatini shaxsiylashtirishga, uning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi.

Gnoseologik bilimlarni o'qitish — zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, u o'ziga xos didaktik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar orasida ilmiylik, tizimlilik va

[11]Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. — Тошкент: Фан, 2006. — Б. 64–78.
[12]Хуторской А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2001. — С. 174–192.

izchillik, onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, tushunarlilik, nazariya va amaliyot birligi, bilimlarning mustahkamligi markaziy o‘rin egallaydi. Bu tamoyillarning har biri inson bilish jarayonining muayyan qonuniyatiga asoslangan hamda ular bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizimni tashkil etadi.

Gnoseologik bilimlarni o‘qitishning o‘ziga xosligi shundaki, bu sohada o‘quvchi nafaqat ma’lumotlarni o‘zlashtiradi, balki bilim hosil qilish yo‘llarini, tafakkur qonunlarini, haqiqatni ajratish mezonlarini ham o‘rganadi. Bu esa unda tanqidiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Zamonaviy sharoitda didaktik tamoyillar an’anaviy mazmunini saqlab qolish bilan birga, innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar bilan boyitilmoqda.

Shunday qilib, gnoseologik bilimlarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini teran o‘zlashtirish va amalda qo‘llay olish hozirgi zamon o‘qituvchisining kasbiy mahoratining muhim ko‘rsatkichidir. Bu tamoyillarni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish — ta’lim sifatini yuksaltirishning hal qiluvchi shartlaridan biridir.



14. Jumayev Eshtemir Toshmamatovich
BOLA TILI- ONA TILI **66**

15. Xolmurodov Dilmurod Sobir o'g'li
TURKIY TILLI MAMLAKATLARDA TURK TILINING MILLIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI VA TA'SIRI **68**

16. Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna
TURKIY TAOM NOMLARINING ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI TADQIQI **72**

17. Rakhmatova Aziza Rustam qizi
PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT AND PROSPECTS OF NATIONAL LANGUAGES IN TURKISH-SPEAKING COUNTRIES **75**

18. Jo'raeva Laylo Jiyanqulovna, Azimova Nilufar Dilshod qizi
ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI MILLIY KIYIM NOMLARINING LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI **78**

19. Ro'zmatova Nargiza Ollashukur qizi
XORAZM FOLKLORIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI **82**

20. Jumayeva Shahrigul Shavkat qizi
"XAZOYIN UL-MAONIY" DEVONIDAGI TURKIY MUAMMOLARNING QOFIYA TIZIMI **87**

21. Karimova Guzal Xolmurat qizi
TIL VA SO'Z ODOBI MASALALARINING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI **92**

22. Elmirzaeva Zarina Obidin qizi
GUL KONSEPTINING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK YO'NALISHDAGI TADQIQI **98**

23. Saidnabieva Lobar Xursanovna
OLIY TA'LIM TIZIMIGA OID TERMINLARNI O'RGANILISHIGA DOIR MASALALAR **101**

24. Tursunova Muborak Nurmahmatova
TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDAGI IBORALARI HAQIDA **104**

25. Javliyeva Guljahon Murodovna
O'ZBEK NUTQ MADANIYATIDA ISM VA MUROJAAT ODOBI **106**

26. Маматова Мохинур Музаффаровна
РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЯЗЫКОВ В ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВАХ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ **109**

2-SHO'BA. TURKIY TILLARDA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

27. Шеронов Бойир Ғозибекович, Жабборов Баҳром Абдурасулович
ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ТАДҚИҚИ ВА ИЛМ ФИДОИЙСИ **115**

28. Ibragimov E.X.
H GNOSEOLOGIK BILIMLARNI O'QITIShNING DIDAKTIK TAMOYILLARI **121**